

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUNCHILIK
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA
HUQUQIY XULOSA**

№ IP2007008860

- 1. Loyihaning turi:** Shartnoma № 217.
- 2. Loyihaning turkumi:** Korxona (tashkilot, muassasalar)lar uchun qattiq maishiy chiqindilar olib chiqib ketish bo'yicha xizmat ko'rsatish.
- 3. Loyihaning ishlab chiquvchisi va "E-huquqshunos" elektron tizimiga kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:**
Farg'ona shahar tibbiyot birlashmasi bilan Farg'ona shahar "Qirguli Komunal Servis" MCHJ o'rtasida ishlab chiqilgan va umumiy bahosi 2 208 000 (ikki million ikki yuz sakkiz ming) so'm bo'lgan hamda 2022-yil 20-yanvar kuni "E-huquqshunos" elektron tizimi orqali huquqiy ekspertizaga taqdim etilgan shartnoma loyihasi.

4. Loyiha bo'yicha taklif:

Mazkur shartnoma loyihasi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni va boshqa amaldagi qonunchilik hujjatlari asosida huquqiy ekspertizadan o'tkazilib, unga ko'ra:

- Shartnoma loyihasining amaldagi qonunchilik hujjatlari talablariga javob berishini va qonunga mos holda tuzilganligini;
 - Tomonlarning shartnomada ko'rsatilgan mulkiy javobgarliklari va o'zaro nizolarni hal qilish yo'llari O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi hamda "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni asosida belgilanganligi aniqlandi.
- Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra,

XULOSA:

Mazkur shartnoma loyihasi amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiqdir.

Markaz bosh yuriskonsulti



A.Abduraximov

2022-yil 21-yanvar.

SHARTNOMA №217

« 20» 01 2022-yil

Farg'ona shahar.

Bundan buyon matnda "Ijrochi" deb ataluvchi nizom asosida faoliyat olib boruvchi Farg'ona shahar "Qirguli Komunal Servis" M.CH.J. rahbari A.Rahbarov bir tomondan va bundan buyon matnda "Buyurtmachi" deb nizom asosida faoliyat olib boruvchi Farg'ona shahar tibbiyot birlashmasi nomidan boshlig'i M.N. Shokirov ikkinchi tomondan, quyidagilar to'g'risida shartnoma tuzdilar:

I. Shartnoma mazmuni

1.1. "Buyurtmachi" qattiq maishiy chiqindilar (bundan buyon QMCH deb atalsin) ni topshiradi "Ijrochi" esa shartnomada ko'rsatilgan haq evaziga "Buyurtmachi" tomonidan maxsus belgilangan joyga yeg'ilgan QMCH larni tashib chiqib ketishni o'z zimmasiga oladi, "Buyurtmachi" esa ko'rsatilgan xizmat uchun o'z vaqtida to'lovlarni to'lab berish shart.

1.2. QMCH larni umumiy hajmi bir yiliga 48 m³ ga **2 208 000 (ikki million ikki yuz sakkiz ming)** so'mni tashkil etadi.

II. Hisob-kitob qilish tartibi

2.1 «Бажарувчи» ушбу шартномага асосан «Буюртмачи топшириғига асосан қуйидаги ишларни бажариб беради.

№	Bajarilgan ishlar turi	O'lchov birligi	Soni	Narxi QQS bilan	Summasi
1	Chiqindi tashish	m ³	48	46000	2 208 000
Jami:					2 208 000

2.2 Ushbu shartnoma bo'yicha bajariladigan ishlarning qiymati oyiga so'mni tashkil etadi.

2.3. Hisob-kitob hisob raqamiga o'tkazib berish yo'li bilan amalga oshiriladi. Shartnomaning 2.1-bandida qayt etilgan ma'lumotlar taraflar o'rtasida hisob-kitob uchun asos hisoblanadi. Mazkur shartnomaning 1.1-1.2-bandida ko'rsatilgan hisob-kitob shartnomaning 9.2-bandi talablariga rioya etilgan holda o'zgartirilishi mumkun.

2.4. Har oyning 10 sanasigacha, keying oyning rejaviy ish hajmiga (Buydjet tashkilotlarida shartnomaga ilova qilingan to'lov jadvaliga) qarab oldindan 15% to'lovlarni amalga oshirib. "Buyurtmachi" tomonidan qolgan 85% to'lov "Ijrochi" tomonidan xizmat to'liq ko'rsatilib, hisob fakturalar taqdim qilinganidan so'ng to'lab beriladi.

2.5. Har oyning 10 sanasigacha o'tgan hisobot oy uchun ko'rsatilgan xizmat to'lovlarni "Ijrochi"ning hisob raqamiga to'lov talabnomasi (bajarilgan ish dalolatnoma)yuborish yo'li bilan bank orqali aktsizsiz o'tkazib berish.

III. "Buyurtmachi" majburiyatlari

3.1. QMCH tashlanadigan qutilarni qurilish va yirik hajmdagi chiqindilar va shox-shabbalar bilan to'ldirmaslik, aksincha, ularni maxsus joyga yig'ish hamda bu chiqindilarni tashib ketish uchun alohida haq evaziga bir marotabalik shartnoma tuzish.

3.2. Chiqindi saqlash qutilari joylashgan maydonchalar va chiqindi to'plash qurilmalariga avtomashinalarning erkin yaqinlashishini va chiqindi qutilarini doimo soz holda saqlashni ta'minlash.

3.3. QMCHn o'z vaqtida olib chiqib ketishini doimiy nazorat qilish, tasdiqlangan yo'nalish jadvali buzilgan hollarda 73 242 40 22 telefoniga telefonogramma yo'llash orqali "Ijrochiga" ma'lumot berish.

3.4. Bajarilgan ishning hajmini "Ijrochi"ning hujjatlarida "Buyurtmachi" vakillining imzosi va korxona muhri bilan tasdiqlab borish.

IV. "Ijrochi"ning majburiyatlari

4.1. Shartnomada ko'rsatilgan QMCH tashlanadigan maxsus manzildan chiqindilarni maxsus avtomashinalarda jadval asosida olib chiqib ketilishini ta'minlash.

4.2. "Buyurtmachi"ning buyurtmasiga asosan qo'shimcha to'lov hisobiga qurilish va yirik hajmdagi chiqinlarni, shox-shabballarni olib chiqib ketish uchun transport ajratish.

4.3. Har oy boshiga o'tgan hisobot oy uchun shartnoma asosida "Buyurtmani" hisob raqamiga to'lov talabnomasini yuborish.

4.4. "Buyurtmachi" tomonidan QMCHni o'z vaqtida olib chiqib ketilgani to'risida ma'lumot kelib tushgandan so'ng 1 kun muddat ichida ko'rsatilgan manzildan chiqindilarni olib chiqib ketish.

4.5. Biriktirilgan yo'nalishlarda sanitar tozalik nazoratini olib borish.

V. Tomonlarning javobgarliklari

5.1. "Buyurtmachi" tomonidan ko'rsatilgan muddatdan kechiktirilgan har bir kun uchun belgilangan muddatda to'lanmagan summaning 0,4% miqdorda, lekin kechiktirilgan to'lovlarning 50% oshmagan miqdorda "Ijrochi"ga penya to'laydi. Agar "Ijrochi" ushbu xabarnomadan so'ng o'z vakilini dalolatnoma tuzish uchun yubormasa, yoki 24 soat ichida QMCH olib chiqib ketilmasa, "Buyurtmachi" jamoatchilik ishtirokida dalolatnoma tuzadi va ushbu dalolatnoma aybdorga nisbatan shartnomada ko'rsatilgan jazo turlarini qo'llash uchun asos hisoblanadi.

5.2. "Ijrochi" o'z vaqtida QMCH olib chiqib ketmaganligi uchun ikki tomon vakillari tomonidan imzolangan dalolatnoma asosida har bir kun uchun olib chiqib ketmagan QMCH hajmi qiymatidan 0,4% miqdorida, lekin umumiy summa bajarilmagan ish summasining 50% oshmagan miqdorda "Buyurtmachi"ga penya to'laydi.

5.3. Jarima va penya to'lash tomonlarni shartnoma shartlarini bajarishdan ozod etmaydi.

5.4. Ushbu shartnomada ko'rsatilgan javobgarlik choralari O'zbekiston Respublikasi Fuqorolik kodeksi, "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni va boshqa hujjatlar bilan belgilanadi.

VI. Shartnoma muddati

6.1. Mazkur shartnoma «05» 01 «2022» yildan boshlanib, «31» 12 «2022» yilda tamomlanadi.

VII. Nizolarni hal etish tartibi

7.1. Mazkur shartnoma yuzasidan nizolar va kelishmovchiliklar taraflarning o'zaro kelishuvi bilan bartaraf etiladi.

7.2. Taraflar tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan sudgacha kelishmovchiliklarni hal etish choralari (talabnoma yuborish va x.k) ko'rilgunga qaramay nizo o'zaro hal etilmaganda, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda nizoni hal etish uchun tegishli tartibda Farg'ona viloyat Iqtisodiy sudiga murojat etiladi.

VIII. Fors-major holatlar

8.1. Taraflar o'z ixtiyorlariga qaramay yuzaga kelishi mumkin bo'lgan sabablar yohud holatlar (shu jumladan zilzila, suv toshqini, urish holatlarining ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan boshqa tabiiy ofatlar) hamda Hukumatning normativ-huquqiy hujjati qabul qilinib, shartnomaviy majburiyatlarini bajarilishiga to'sqinlik qilishga olib kelganda, bu holatlardan habardor bo'lgan yoki bo'lishi lozim bo'lgan taraf ikki hafta oldin boshqa tarafga yozma ravishda ma'lum qilgan holdagina ushbu holatlar fors-major holati hisoblanadi, ushbu holatda taraflar majburiyatlarni bajara olmaganligi uchun javobgar bo'lmaydilar.

XI. Korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlar

8.1 Taraflar shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng, shartnoma bilan bog'liq korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka kelishib oladilar.

8.2 Taraflar shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralarni tan oladi va ularga rioya etilishi bo'yicha hamkorlikni ta'minlaydilar.

8.3 Har bir taraf shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog'liq munosobalar yuzasidan qonunga xilof ravishda pul, moddiy qiymatliklar berilmaganligini, shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishga yo'l qo'yilmaganligini, taklif etilmaganligini, ularni berishga va'da qilinmaganligini, shuningdek moddiy yoki har qanday turdagi imtiyoz, ustunliklar olinmaganligini (kyelajakda bu turdagi harakatlarni amalga oshirishi mumkinligi haqida taassurot qoldirmaganligini) kafolatlaydi.

Taraflar, ular tomonidan shartnoma doirasida jalb qilingan shaxslarning (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslarning) yuqoridagi harakatlarni sodir etmasligi yuzasidan oqilona choralar ko'radi.

8.4 Ushbu holat bo'yicha bir taraf ikkinchi tarafni hamda vakolatli davlat organlarini darhol xabardor qilishi shart.

8.5 Tarafning talabi bo'yicha ikkinchi taraf tomonidan qoidabuzarliklarni bartaraf qilish bo'yicha oqilona muddat ichida tegishli choralar ko'rilmagan yoki ko'rib chiqish natijalari haqida xabardor qilmagan taqdirda, ushbu taraf shartnomani bir taraf lama to'xtatib turishga, bekor qilishga hamda zararni to'liq qoplab berishni talab qilishga haqli.

X. Shartnomani bekor qilish, o'zgartirish yoki qo'shicha kiritish tartibi

9.1. Amaldagi shartnoma muddatidan oldin quydigi holatlarda bekor qilinishi mumkin.

9.2. Mazkur shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimcha kiritish yoki shartnomani muddatidan ilgari bekor qilish ushbu haqdagi takliflar yozma ravishda amalga oshirilib, vakolatli shaxslar tomonidan imzolanganidan so'ngina haqiqiy deb topilib, ushbu ilova shartnomaning ajralmas qismi hisbolanadi.

9.3. Ushbu shartnoma ikki nusxada bo'lib, har bir yuridik kuchga egadir. Shartnoma bir donadan har bir tarafda saqlanadi.

XI. Taraflarning rekvizitlari

«Bajaruvchi»:

QIRGULI KOMMUNAL SERVIS» MCHJ

Manzil Farg'ona shahar, Yangi-Asr

ko'chasi 138 D-uy

H/r: 20208000705025611001

MFO: 00493

INN:302527970

Bank nomi: Farg'ona "Milliy banki" банк

Тел: +99873 242-40-22

Тел: +99899 999-97-98

Rahbar:

A.Rahbarov



«Buyurtmachi»:

Farg'ona shahar tibbiyot birlashmasi

Farg'ona shahar Qirlola ko'chasi 2-uy

Shh/r: 400322860304017072120054016

STIR: 200145074 OKONX: 97600

Farg'ona shahar bo'yicha G'aznachilik

boshqarmasi

H/r: 23402000300100001010

Markaziy bank Toshkent shahar HKKM

MFO: 00014 STIR: 2011122929

Boshlig'i:

M.N. Shokirov

